

**Odilbek Komilov**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Teleoperatorlik yo'nalishi magistranti  
E-mail: komilovodilbek014@gmail.com*

## **TEZKORLIK VA UZLUKSIZLIK – JONLI EFIR MONTAJINING YETAKCHI OMILI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jonli efir montaj jarayonida tezkorlik va uzluksizlik tamoyillarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Televideniye efirlarida voqelikni tabiiy va uzviy tarzda etkazish, montaj ritmi hamda kadrlar o'zaro uyg'unligini saqlashning badiiy va texnologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy montaj texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar va sun'iy intellektning jonli efir sifatiga ta'siri yoritiladi. Maqolada tezkorlik va uzluksizlikning uyg'unligi jonli efirning samaradorligi va tomoshabin qabuliga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** jonli efir, montaj, tezkorlik, uzluksizlik, televideniye, rejissyor, texnologiya, ritm, estetika.*

## **SPEED AND CONTINUITY ARE THE KEY FACTORS IN LIVE EDITING**

***Abstract.** This article analyzes the role and importance of the principles of speed and continuity in the process of live broadcast editing. The artistic and technological aspects of conveying reality in a natural and coherent way, maintaining the rhythm of editing and the harmony of frames in television broadcasts are considered. It also highlights the impact of modern editing technologies, automated systems and artificial intelligence on the quality of live broadcasts. The article analyzes the combination of speed and continuity as a key factor that directly affects the effectiveness of live broadcasts and viewer acceptance.*

***Keywords:** live broadcast, editing, speed, continuity, television, director, technology, rhythm, aesthetics.*

Televideniye bugungi kunda axborotni tezkor, aniq va ta'sirchan shaklda etkazish vositasiga aylangan. Ayniqsa, jonli efir (live broadcast) jarayonida montaj nafaqat texnik, balki badiiy nazorat vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Efir davomida montajning asosiy maqsadi – voqeani to'liq, tabiiy va tomoshabin uchun uzluksiz tarzda namoyish etishdir. Shu bois, jonli efir montajida tezkorlik va uzluksizlik tamoyillari etakchi o'rin tutadi. Bu tamoyillar efir jarayonining umumiy sifatiga, voqelikni qabul qilish jarayoniga hamda tomoshabinning diqqatini ushlab turish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tezkorlik (operativlik) jonli efirda voqealarning real vaqt rejimida uzluksiz namoyish etilishini ta'minlaydi. Rejissyor, operator va montajchi o'rtasidagi muvofiqlik bu jarayonning asosi hisoblanadi [2]. Bir necha soniya kechikish ham tomoshabinning voqea ritmini buzadi. Jonli efirda tezkorlik quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: kadrlar almashinuvi tezligi, rejissyor tomonidan berilgan buyruqlarning darhol bajarilishi, kutilmagan holatlarda mos qaror qabul qila olish. Tezkorlik bu faqat harakat tezligi emas, balki ijodiy refleks va mantiqiy qaror qabul qilish qobiliyatidir [3]. Shuning uchun jonli efirda ishlovchi jamoa yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.



*Rasm-1. Jonli efirda montaj pulti bilan ishlash jarayoni.*

**Tezkorlik va uzluksizlikning o'zaro bog'liqligi.** Uzluksizlik montaj san'atining eng muhim estetik tamoyillaridan biridir. Jonli efirda bu tamoyil voqealar ketma ketligi, tasvirning tabiiy oqimi va mantiqiy bog'liqligini saqlab



qolish orqali namoyon bo'ladi. Masalan, sport translatsiyalarida kadrlar o'zaro ritmik almashsa, tomoshabin to'pning harakatini uzluksiz kuzatadi. Konsert, yoki shou dasturlarida esa musiqiy ritm bilan mos kadr almashuvi emotsional uzluksizlikni ta'minlaydi [4]. Uzluksizlik buzilsa, efir sun'iy, keskin, yoki mantiqsiz tuyuladi. Shu sababli montaj rejissyori har bir kadr o'zining oldingi va keyingi tasvir bilan uyg'unligini nazorat qiladi. Bu ikki tamoyil jonli efirda bir-birini to'ldiradi. Tezkorlik efirni dinamik, uzluksizlik esa tushunarli va estetik qiladi. Agar tezkorlik ortiqcha bo'lsa, efirni parokandalikka olib keladi. Agar uzluksizlikka haddan ziyod urg'u berilsa, efir sekin va zerikarli ko'rinadi. Shuning uchun montaj jarayonida rejissyor bu ikki omil o'rtasida muvozanatni saqlashi lozim.



*Rasm-2. Sport jonli efirda rejissyorning ishlash jarayoni.*

Bu muvozanat tomoshabin qabulida jonli efirni tabiiy va ishonchli qiladi. Shuningdek, O'zbekiston telekanallarida (masalan, O'zMTRK, Sevimli TV, Zo'r TV) bu tajriba ancha rivojlangan bo'lib, jonli shoular va yangiliklar dasturlarida tezkorlik va uzluksizlik uyg'unligiga katta e'tibor qaratilmoqda [5].

**Texnologik taraqqiyotning ta'siri.** Zamonaviy texnologiyalar jonli efir montajining tezkor va uzluksiz olib borilishida katta rol o'ynaydi. Mix, OBS Studio, ATEM Mini, TriCaster kabi tizimlar orqali kamera manbalari avtomatik almashadi, fokus va ekspozitsiya avtomatik sozlanadi, rejissyor real vaqt rejimida tahrirni

boshqaradi. Sun'iy intellekt (AI) asosidagi tizimlar esa sahnadagi harakatni avtomatik kuzatib, kadrlar ketma-ketligini algoritmik tarzda tartibga soladi. Bu esa efirda nafaqat tezkor, balki mukammal uzluksizlikni ham ta'minlaydi. O'zbekiston televideniylarida so'nggi yillarda bu yo'nalishda sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Masalan, O'zMTRK va Sevimli TV studiyalarida avtomatik kamera boshqaruvi va AI asosli montaj tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [6].

Jonli efir montaji – bu nafaqat texnik jarayon, balki ijodiy boshqaruv san'atidir. Tezkorlik efirni hayotiy va dinamik qiladi, uzluksizlik esa uni yaxlit va estetik shaklda tomoshabinga etkazadi. Shu bois, har bir televideniye jamoasi ushbu ikki tamoyilni mukammal egallashi lozim. Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda inson omili – rejissyor sezgisi, ritm tuyg'usi va badiiy qarash hamon jonli efirning eng muhim kalitidir. Tezkorlik va uzluksizlik uyg'unligi televideniya professional montaj madaniyatining poydevorini tashkil etadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. *Abdullayev A. Televideniya montaj san'ati.* – Toshkent: O'zMU, 2021.
2. *Xodjayev N. Audiovizual madaniyat asoslari.* – Toshkent: Kamalak, 2020.
3. *Brown B. Cinematography: Theory and Practice.* – Focal Press, 2016.
4. *Qodirov X. Televideniye rejissurasi asoslari.* – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
5. *Karimova M. Media madaniyat va vizual san'at.* – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
6. *O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi rasmiy sayti.*  
<https://kinoagency.uz>
7. *O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.* <https://aoka.uz>
8. <https://www.vmix.com>. vMix Live Production Software.
9. <https://www.obsproject.com>. OBS Studio Official.
10. *O'zMTRK rasmiy portal.* [www.mtrk.uz](http://www.mtrk.uz).

